

## YAPON OLIMLARINING TADQIQOTLARIDA MO‘G‘ULLAR MANBALARINI O‘RGANILISHI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-21-89-94>

*Q. U. Imamnazarov*

*Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi”*

*kafedrasi katta o‘qituvchisi*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti*

### ANNOTATSIYA

*Xitoy manbalari Yuan davri — Xitoydagi mo‘g‘ullar hukmronligi davri tarixiga oid asosiy manbalardir. Faqatgina xitoy tilidagi adabiyotlarda Xitoyning Mo‘g‘ul Yuan sulolasi davridagi tarixi haqida eng batafsil ma‘lumotlar yapon olimlarining ilmiy ishlarida ham keng tadqiq qilingan. Shu boisdan, Yuan sulolasi — haqidagi yapon olimlarining tadqiqotlarida Xitoydagi mo‘g‘ullar davlati tarkibiga kirgan boshqa mamlakatlar va xalqlar tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.*

**Tayanch iboralar:** *Yuan sulolasi tarixi, Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi, Chingizxonning haqiqiy solnomasi, Yunle da dian, Naka Mitiyo, Siratori Kurakiti, Ishihama Juntaro, Kosiro Kobayasi, Shinobu Ivamura.*

### АННОТАЦИЯ

*Китайские источники Период Юань - основные источники по истории периода монгольского владычества в Китае. Только в китайской литературе наиболее подробные сведения об истории Китая в период монгольской династии Юань также широко исследованы в научных трудах японских ученых. Поэтому исследования японских ученых о династии Юань имеют важное значение для изучения истории других стран и народов, входивших в состав Монгольского государства в Китае.*

### ABSTRACT

*Chinese Manuscripts The Yuan period is the main source on the history of the Mongol period in China. Only in Chinese literature, the most detailed information about the history of China during the Mongol Yuan dynasty is also widely studied in the scientific works of Japanese scientists. Therefore, Japanese scientists’ research on the Yuan Dynasty is of great importance in studying the history of other countries and peoples that were part of the Mongol state in China.*

Yuan sulolasi manbalarni o‘rganish juda keng doirani o‘z ichiga olgan bo‘lib, - hikoya, epigrafik, arxeologik, folklor va etnografik ma‘lumotlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Ularni ichida eng qimmatli manbalar yozma manbalar bo‘lib, mo‘g‘ullar tarixini yoritilishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda Xitoy arxeologiyasining yutuqlari sezilarli bo‘lsada ortgan. Yuan davriga oid maqbarlarni qazish ishlari tadqiqotchilarga madaniy ob‘ektlar va turli xil tasvirlar, freskalar o‘sha davrdagi insonlarning turmush tarzini baholash imkonini beradi. Arxeologik ma‘lumotlar etnik tarixning alohida jihatlarini, xususan, mo‘g‘ullar jamiyatining iqtisodiyoti va moddiy madaniyatini o‘rganishda ajralmas qismi hisoblanadi. Folklorshunoslik va zamonaviy etnografik tavsiflardan olingan dalillar muhim ahamiyatga ega.

Xitoyda mo‘g‘ullar davri sulolalar tarixini yaratish an‘anasi imperator saroyining qattiq nazorati ostida yozilgan va tahrir qilingan. Shu boisdan bugungi kun ilmiy izlanishlarida mo‘g‘ullar tarixini o‘rganish yapon olimlarining tadqiqotlari ham muhim rol o‘ynaydi.

Mashhur yapon olimi Naka Mitiyo 1902-yilda “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi”ning xitoycha matnining nusxasini olgan. Ushbu tarixiy yodgorlikning dunyoda ilk marta boshqa yapon tiliga tarjimasini nashr etdi va unga keng sharhlar bergan. Matn “Chingizxonning haqiqiy solnomasi” (yaponcha: 成吉思汗実録) nomi ostida nashr etilgandi. Uning fikricha, “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi”<sup>1</sup> Chingizxon davridan yozilib, 1240-yilda davom ettirilgan va keyinchalik qayta tahrir qilingan. Ushbu yodgorlikning qayta ko‘rib chiqilgan nusxasi Xitoyda barpo qilingan Yuan sulolasi davrida “Tobchiyan”<sup>2</sup> nomi bilan ma‘lum bo‘lgan. Nakaning fikriga ko‘ra, Rashid ad-Din “Oltan Daftar” deb nomlangan to‘plam bilan bir xil bo‘lgan. 1940-yilda Ishihama Juntaro Naka Mitiyoning fikrini qo‘llab-quvvatlagan va “Maxfiy tarix”ning davomi Ogedeyxon davrida yozilgan deb taxmin qiladi<sup>3</sup>. Naka Mitiyo Maxfiy tarix ilk Mo‘g‘ullar imperiyasi tarixiga oid barcha boshqa asarlar uchun asosiy manba deb hisoblagan va uning asosida xitoycha “Taizu Shi Lu” (xitoycha: 太祖實錄, Taizuning haqiqiy tarixi) asari tuzilgan bo‘lib, u Yuan tarixi yozish uchun manba bo‘lib xizmat qilgan<sup>4</sup>.

Naka Mitiyo tarjimasida “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi”ning 12 bobdan bo‘lib asosiy jilddan bilan boshlanadi, unda Chingizxonning ajdodlar an‘analari, yoshligi va Mo‘g‘ul qabilalarining birlashishi, 1206-yilda taxtga o‘tirgunga qadar bo‘lgan

<sup>1</sup>那珂通世(成吉思汗実録)大日本図書,402頁.1907年1月18日.

<sup>2</sup>明治四十一年三・四月(大阪朝日新)所載、「桑原隲藏全集 第二卷」岩波書店.

<sup>3</sup>Исихама Дзюнтаро, Генчо хиси ко (Исследование «Секретной истории династии Юань»), — «Рюоку сидан», 1940, № 15, стр. 1—9

<sup>4</sup>小林高四郎 訳(蒙古の秘史)生活社、1940年2月20日.

voqealari yoritilgan. Keyingi boblar Chingizxonning istilolaridan tortib, uning o‘limigacha bo‘lgan voqealar, jumladan, uning vorisi Ogedeyning taxtga o‘tirishi (1229), harbiy yurishlari va saroyning qayta tashkil etilishi haqidagi hikoyalar bilan yakunlangan. Umuman olganda, manbaning birinchi yarmi Chingizxon va uning atrofida gilarining harakatlari yorqin tasvirlaydigan qahramonlik eposi hisoblanadi, ikkinchi yarmi esa ko‘plab voqealardan va rasmiy buyruqlardan iborat bo‘lib, tarixiy rivoyat xarakteriga ega deb aytiladi.

“Yuan sulolasi tarixi” (XIV-asr oxiri) va “Jome at-Tavorix” (XIV-asr boshlari) kabi keyingi tarixiy asarlar bilan taqqoslaganda, “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi” ushbu asarlarda uchramaydigan voqealarning ko‘plab tavsiflarini o‘z ichiga oladi va uning matni kuchli adabiy xususiyatlarni namoyish etgan. Bundan tashqari, hikoya uslubi odatda dramatik bo‘lib, “dasht hidini taratuvchi” yorqin tasvirlarga ega. Kichik mo‘g‘ul-turk qabillar va uru‘glarning o‘rtasidagi munosabatlar tizimi shakllanish jarayoni hamda voqiliklarning badiiy talqini o‘z ifodasini topgan.<sup>5</sup> Uning yuqori adabiy sifati va dramatik epizodlari, shunga o‘xshash asarlardagidan farqli o‘laroq, jozibali va Chingizxon haqidagi ko‘plab tarixiy romanlar “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi” ga asoslangan.

1942 yilda yan bir yapon olimi Sиратори Куракити<sup>6</sup> “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi” manbasini Yapon tiliga ikkinchi marta tarjima qilib, uni boshqa matnlar bilan solishtirganda, voqealar ketma-ketligi, sharoitlarni uzviyligi va mazmun tushuntirishga harkat qilgan. Bu esa tavsiflarning tarixiy aniqligiga shubha tug‘diradi. Ushbu xususiyatlar tufayli ba’zi qarashlar “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi” kitobidan ko‘ra ko‘proq tarixiy roman turi sifatida qarash kerak degan fikrni ilgari surgan. “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi”da hikoya qilingan ko‘plab qahramonlik epizodlari “Jome at-Tavorix” kabi boshqa matnlardagi epizodlar bilan bir-biriga mos keladi. Boshqa manbalarga qaraganda tarixiy dalillarga yaqinroq deb aytiladi, chunki u Chingizxonni haddan tashqari ulug‘lamaydi balki uning kamchiliklarini ochiq ko‘rsatib bergan. Tarixiy dalillar qayd etadimi yoki yo‘qmi, ko‘plab tarixchilar bu asarni XIII-asr oxiri - XIV-asr boshlarida ajdodlarining qahramonlik hikoyalarini avloddan avlodga o‘tkazgan mo‘g‘ul xalqining xotiralarini kuchli aks ettiruvchi manba deb hisoblashadi<sup>7</sup>.

<sup>5</sup> E. Bretschneider. *Medieval Researches from Eastern Medieval Sources*. Vol. 1. London. 1888; E. Oliver. *The Chagatai Mughals // The Journal of Royal Asiatic Society*. Vol. 20.

<sup>6</sup> Сиратори Куракити. *Онъяку мобун гэнтё хиси*. Романизированное изложение «Юаньчаобиши» («Тайной истории монголов») на оригинальном монгольском языке (яп.). — Издательство «Тойо Бунко». — Токио, 1942. — Т. VIII.

<sup>7</sup> Сиратори Куракити. «Онъяку мобун гэнтё хиси». Романизированное изложение «Юаньчаобиши» («Тайной истории монголов») на оригинальном монгольском языке (яп.). — Издательство «Тойо Бунко». — Токио, 1942. — Т. VIII.

Garchi asarning to‘liq qismlari hozirgi mo‘g‘ul tiliga to‘liq tarjima qilingan bo‘lsada, bu urinishlarning hech biri “Yuan sulolasi tarixi”ning mo‘g‘ulcha nushasini tiklashga urinish emas balki asrning asl mohiyatini saqlab qolish bo‘lgan. Bundan tashqari, Tokio chet tillar maktabi professori Kohei Kamigataning shunga o‘xshash tarjimalari tadqiq qilgan. Kosiro Kobayasi ushbu kitobni zamonaviy yapon tiliga “Mo‘g‘ullarning mahfiy tarixi” nomi bilan tarjima qilgan. “Yuan sulolasi tarixi”<sup>8</sup> shu tariqa jahon ilmiy jamoatchiligiga to‘la-to‘kis namoyish qilingan, uning nusxalari Yaponiyada va Osiyoning boshqa mamlakatlarida keng tarqalgani jahon tarixi mo‘g‘ulshunoslikning yangi bir yo‘nalishini tadqiq qilishga yangi yo‘l ochib beradi.

Uzoq vaqt davomida “Yuan tarixi” Xitoyda faqat “Yunle da dian ensiklopediyasi”<sup>9</sup>ga kiritilgan 15 jildlik nashr sifatida ma‘lum bo‘lgan, ammo uning Xitoydan tashqarida mavjudligi haqida hech narsa ma‘lum emas edi. Siratori Kurakitining ta‘kidlashicha<sup>10</sup> ushbu qo‘lyozma Ming davri matni Hanlin akademiyasida mo‘g‘ul tilini o‘rganuvchi tarjimonlar uchun qo‘llanma sifatida foydalanilgan. U uch qismdan iborat: mo‘g‘ulcha talaffuzning xitoycha belgilarga transkripsiyasi, xitoy tilidagi qatorlararo sharh va xitoy tiliga yuzaki, ko‘pincha qisqartirilgan tarjima bo‘lgan. Ushbu asar asl nusxadan deyarli bir asr keyin tuzilganligi sababli, mo‘g‘ulcha transkripsiyalari Chingizxon davridagi asl o‘rta mo‘g‘ul tilini emas, balki o‘sha paytda Pekinda yashagan mo‘g‘ullarning talaffuzini aks ettirishi mumkinligi ta‘kidlangan. 12 bob va 282 bo‘linga bo‘lingan ushbu matn 1408-yilda Yongle Entsiklopediyasiga 15 jildli nashrga kiritilgan.<sup>11</sup> 12 qismdan iborat asl asar taxminan 1410-yillarda Pekinda nashr etilgan. Ming sulolasi qulaganidan va Tsing sulolasi davrida, bu matnlar ko‘chirilib, tarqatila boshlandi. 12 bobdan iborat bo‘lgan eng qadimgi to‘liq nusxasi 1805-yilda xitoy tarixchisi Gu Guangqi (1766–1835) tomonidan qayta tiklangan asar Xitoy Milliy kutubxonasida saqlanadi. Taxminan shu davrda Bao Tingbozhe (1728–1814) Sankt-Peterburg davlat universitetida saqlanadigan 15 qismdan iborat nusxa qayta nashr qildirgan. 1805-yilgi matnga asoslangan nusxasi 1908-yilda Ye Dehui tomonidan nashr etiladi va keyingi tadqiqotlarda “Yuan sulolasining maxfiy tarixi”<sup>12</sup>ning boshqa nusxalari bilan taqqoslashga imkon beradi. Keyinchalik XIX

<sup>8</sup>叢書組入『チンギス・ハン伝』(蒙古研究叢書 8) 生活社 1942

<sup>9</sup> Казин В. Н. «Юн-лэ да дянь»: // Труды востоковедов в годы блокады Ленинграда (1941—1944). — М.: Восточная литература, 2011. — Вып. 1. — С. 151—191

<sup>10</sup> Сиратори Куракити. «Онъяку мобун гэнтё хиси» (яп.) — Издательство «Тойо Бунко». — Токио, 1942. — Т. VIII.

<sup>11</sup> П. И. Кафаров «Старинное монгольское сказание о Чингис-хане». С. Петербург. 1866. —261 с.

<sup>12</sup> Сокровенное сказание монголов / перевод с монгольского и примечания А. В. Мелёхин; перевод стихов Г. Б. Ярославцев; вступительная статья С. Дулам; иллюстрации Ж. Саруулбуян. — Донецк: Сталкер, 2001. — 256 с

asrning o'rtalarida rus sinologi boshlig'i Palladiy Kafarov tomonidan rus tilida yangi tarjima nashr etilgan.

Shinobu Ivamuraning<sup>13</sup> tadqiqotlari XIII va XIV asrlarning ikkinchi yarmida Mo'g'ulistonning o'zida yuzaga kelgan vaziyatni o'rganishga bag'ishlangan. Gap shundaki, mo'g'ullarning harbiy yurishlari Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlarini bosib olib, u yerda o'z hukmronligini o'rnatganlaridan so'ng, poytaxtlarini Xitoyga ko'chirib, uni imperiya siyosiy hayotining markaziga aylantirgan. Mo'g'ul qabilalari o'z yurtidan tashqarida boshqa xalqlar bilan birgalikda 200 yillik hukmonlikni amalga oshgan bo'lsada Evrosiyoning etnik jarayoniga keskin tasir ko'rsatgan. Shinobu Ivamuraning asarlari Mo'g'ul imperiyasi va Ipak yo'li tarmog'ini qamrab olgan. Uning asosiy asarlari "Mo'g'ulistonning ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganish" va "XIII asrda Sharq-G'arb munosabatlari tarixiga kirish"<sup>14</sup> diqatga sazovordir. Akademik ishlaridan tashqari, u keng jamoatchilik uchun ko'plab kitoblar nashr etgan va 1980-yillardagi "Ipak yo'li" tadqiqot loyhasiga asos solgan shaxslardan biri sifatida tanilgan.

Yapon olimlarining ilmiy ishlari mo'g'ul tarixining qadimiy va zamonaviy bosqichlari va davrlarini kuzatish imkonini beradi. Og'zaki xalq an'analari ham qadimgi va o'rta asr mo'g'ul tarixining asosiy manbaidir. Ular ko'chmanchi xalqlar, jumladan, mo'g'ullar orasida tarixiy ma'lumotlar og'zaki an'alar orqali boshqa xalqlarga qaraganda kam bo'lmagan darajada saqlanib qolganni ta'kidlab o'tganlar. Mo'g'ullar uchun butun tarixiy rivoyatlarni yodlash va qayta hikoya qilish odatiy hol bo'lgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 那珂通世(成吉思汗実録)大日本図書,402頁,1907年1月18日。
2. 明治四十一年三・四月(大阪朝日新)所載、「桑原隲藏全集 第二卷」岩波書店。
3. 小林高四郎 訳(蒙古の秘史)生活社、1940年2月20日。
4. 叢書組入『チンギス・ハン伝』(蒙古研究叢書8)生活社1942
5. 岩村忍『元朝秘史 チンギス=ハン実録』中央公論社〈中公新書18、1963年6月25日。
6. 『十三世紀東西交渉史序説』三省堂1939。
7. E. Bretschneider. Medieval Researches from Eastern Medieval Sources. Vol. 1. London. 1888; E. Oliver. The Chagatai Mughals // The Journal of Royal Asiatic Society. Vol. 20.

<sup>13</sup> 岩村忍『元朝秘史 チンギス=ハン実録』中央公論社〈中公新書18〉、1963年6月25日。

<sup>14</sup> 『十三世紀東西交渉史序説』三省堂1939

8. Shamsieva, Barnokhon Bakhromkhodjaevna. "The Transfer Of The Soul In The Translation Of A Work Of Art." THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals 2.9 (2020): 70-78.
9. Сиратори Куракити. Онъяку мобун гэнтё хиси. Романизированное изложение «Юаньчаобиши» («Тайной истории монголов») на оригинальном монгольском языке (яп.). — Издательство «Тойо Бунко». — Токио, 1942. — Т. VIII.
10. Исихама Дзюнтаро, Генчо хиси ко (Исследование «Секретной истории династии Юань»), — «Рюоку сидан», 1940, № 15, стр. 1—9
11. Казин В. Н. «Юн-лэ да дянь»: // Труды востоковедов в годы блокады Ленинграда (1941—1944). — М.: Восточная литература, 2011. — Вып. 1. — С. 151—191
12. П. И. Кафаров «Старинное монгольское сказание о Чингис-хане». С. Петербург. 1866. —261 с.
13. Сокровенное сказание монголов / перевод с монгольского и примечание А. В. Мелёхин; перевод стихов Г. Б. Ярославцев; вступительная статья С. Дулам; иллюстрации Ж. Саруулбуян. — Донецк: Сталкер, 2001. — 256 с.